

ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 6 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 9, НОМЕР 6

LOOK TO THE PAST

VOLUME 9, ISSUE 6



ТОШКЕНТ-2026

Бош мухаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош мухаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Агзамова Гулчеҳра Азизовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марксовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc),
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти
Миллий тадқиқот университети

Худайкулов Тулқин Дўстобоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариш давлат техника университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Қариш давлат университети

Махкамova Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодири Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc),
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерматов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Андижон давлат университети

Рашидов Ойбек Расулович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Расулов Абдуллажон Нуриддиневич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмутаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc),
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc),
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Курбанов Бахтияр Журабаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Наманган давлат университети

Хакимова Шоира Сағдуллаевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнуэр Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Юсупов Ахмеджон Шоназарович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Urganch davlat universiteti

Тиллахжаева Хуршида Джумаваевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Тошкент давлат техника университети

Одилов Абдор Анварович
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Исоков Бахтиёр Робиддинович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Наманган давлат университети

Тўхтабасев Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети


Хасанова Нодира Ибрагимовна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти, Денов
тадбиркорлик ва педагогика институти

Турсунова Юлдуз Бобоқуловна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
ЎзР. ФА. Тарих институти

Азаматова Гулмира Байирбековна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Каримжонов Жасурбек Мухторжонович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Ўзбекистон Миллий университети

1. Dilnoza Ganiyevna Atadjanova JANUBIY XORAZM VOHASIGA QADIMGI AHOLI MIGRATSIYASI: ARXEOLOGIK VA TARIXIY MANBALAR TAHLILI.....	5
2. Anora Zayniddinovna Tog‘aeva TARIXIY ADABIYOTLARDA TURKISTONNING ROSSIYA IMPERIYASI BILAN SAVDO ALOQALARI XUSUSIDA.....	12
3. Sayfiddin Muxitdinovich Anarkulov SHAHAR MUHITIGA IJTIMOIIY-IQTISODIY MOSLASHUV JARAYONLARINING ANTROPOLOGIK TAHLILI.....	19
4. G‘ulom Masharipovich Djumamuratov, Muslima Maxmudovna Bazarova MARKAZIY OSIYO HUDUDI BO‘YLAB O‘ZBEK URUG‘LARINING JOYLASHUVI MANBALARDA.....	27
5. Farxodjon Odiljonovich Ismatullayev O‘ZBEKISTON–YEVROPA ITTIFOQI HAMKORLIGINING EVOLYUSIYASI VA ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	32
6. Нигора Рахимджанова ЖАДИД НОШИРЧИЛИГИНИНГ МАНБАШУНОСЛИГИ.....	40
7. Axmedjon Shonazarovich Yusupov ILK SAK QABILALARI MADANIYATI TARIXINI O‘RGANISHNING NAZARIY- METODOLOGIK ASOSLARI.....	49
8. Amirbek Tag‘bayev B.X. KARMISHEVA ASARLARIDA ANTROPONIMLAR MASALASI.....	55
9. Nodira Nabiyevna Safixodjayeva MUSTAQILLIK YILLARIDA “MEHRIBONLIK” UYLARIDA YARATILGAN MODDIY- TEXNIK SHAROITLAR.....	61
10. Ozodaxon Botirjon qizi Abdunosirova, Ruxshona Akramjon qizi Abduvoidova UBAYDULLAXON DAVRIDA BUXORO XONLIGIDA ME’MORCHILIK TARAQQIYOTI...69	69
11. Gulom Masharipovich Djumamuratov O‘ZBEK URUG‘LARI TARKIBIDAGI OROL O‘ZBEKLARI TAHLILI.....	74
12. Rabiyaon Mansurbekovna Ibragimova DING‘ILDJA DEHQONCHILIK VOHASI GEOGRAFIK XUSUSIYATLARINING TARIXIY TAHLILI.....	80



Gulom Masharipovich Djumamuratov,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
O'zbekiston tarixi kafedrasida katta o'qituvchisi

O'ZBEK URUG'LARI TARKIBIDAGI OROL O'ZBEKLARI TAHLILI

For citation: Gulom M.Djumamuratov. ANALYSIS OF THE ARAL UZBEKS AMONG THE UZBEK TRIBES. Look to the past. 2026, vol. 9, issue 6.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.21807315>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o'zbek urug'lari tarkibidagi orol o'zbeklari tahlili, "O'zbek" qabilalarining ro'yxatini o'rganish zarurligi, akademik V Bartold tomonidan mavzuning o'rganilishi, Sayfiddin Axsikentiyning "Majmuai at-tavarix" asarida keltirilgan tarixiy ma'lumotlar, A. Boris, G. Potanin, X.Vamberi tomonidan o'rganilgan ilmiy mushohada va xulosalar keng yoritilgan. XV-XVIII asr boshlarida o'zbek ulusidagi orol o'zbeklarining etnik tarkibi, XV asrda shayboniylar va ularni qo'llab-quvvatlovchi urug'larning dashti qipchoqdan ko'chib o'tishi, ushbu masala Sharq va Yevropa manbalarida to'liq yoritilmaganligi, Dashti Qipchoqni tark etib, Movarannahrda ko'chib kelgan urug' va qabilalarning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, o'zbek urug'lari tarkibi va murakkab etnik jarayonlarning bosqichlari ilmiy tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: o'zbek ulusi, orol o'zbeklari, etnogenez, shayboniylar, dashti qipchoq, urug'.

Гулом Машарипович Джумамуратов,
Старший преподаватель кафедры истории Узбекистана,
Узбекский государственный университет мировых языков

АНАЛИЗ АРАЛЬСКИХ УЗБЕКОВ СРЕДИ УЗБЕКСКИХ ПЛЕМЕН

АННОТАЦИЯ

В данной статье подробно рассматривается анализ аральских узбеков в рамках узбекских кланов, необходимость изучения списка «узбекских» племен, исследование этой темы академиком В. Бартольдом, историческая информация, представленная в работе Сайфиддина Ахсикенти «Маджмуай ат-таварих», а также научные наблюдения и выводы, изученные А. Борисом, Г. Потаниным и Г. Вамбери. В статье научно анализируются этнический состав приаральских узбеков в Узбекском улусе в XV – начале XVIII вв., миграция шайбанидов и поддерживающих их родов из Степного Кыпчака в XV в., недостаточное освещение этого вопроса в восточных и европейских источниках, социально-экономическая жизнь родов и племён, покинувших Степное Кыпчак и переселившихся в Мовараннахр, состав узбекских родов и этапы сложных этнических процессов.

Ключевые слова: узбекский улус, приаральские узбеки, этногенез, шайбани, Степное Кыпчакство, род.

Gulom M.Djumamuratov,Senior Lecturer, Department of History of Uzbekistan,
Uzbekistan State University of World Languages**ANALYSIS OF THE ARAL UZBEKS AMONG THE UZBEK TRIBES****ABSTRACT**

This article extensively covers the analysis of the Aral Uzbeks within the Uzbek clans, the need to study the list of "Uzbek" tribes, the study of the topic by Academician V. Bartold, the historical information provided in Sayfiddin Akhsikenti's "Majmuai at-tavarikh", and the scientific observations and conclusions studied by A. Boris, G. Potanin, and H. Vamberi. This article provides a scientific analysis of the ethnic composition of the Aral Sea Uzbeks in the Uzbek Ulus in the 15th to early 18th centuries, the migration of the Shaybanids and their supporting clans from Steppe Kipchak in the 15th century, the insufficient coverage of this issue in Eastern and European sources, the socioeconomic life of the clans and tribes that left Steppe Kipchak and migrated to Movaro-annahr, the composition of Uzbek clans, and the stages of complex ethnic processes.

Index Terms: Uzbek Ulus, Aral Sea Uzbeks, ethnogenesis, Shaybanids, Steppe Kipchakdom, clan.

Dolzabligi:

O'zbek urug'lari tarkibidagi Orol o'zbeklari tahlili mavzusi bugungi kunda o'ta dolzarb ahamiyatga ega. Bu mavzu, bir tomondan, o'zbek xalqining etnik tarixi, urug'-qabilaviy tuzilishi va madaniy xilma-xilligini chuqur o'rganishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, zamonaviy ijtimoiy-siyosiy va ekologik jarayonlar bilan bevosita bog'liqdir.

Orol o'zbeklari (asosan Qoraqalpoqiston Respublikasi va Xorazm viloyatining Orolbo'yi hududlarida yashovchi guruhlar) o'zbek etnosining shimoliy va shimoli-g'arbiy qismida muhim o'rin tutadi. Ularning urug' tarkibi, dialektal xususiyatlari, an'anaviy xo'jalik turi (baliqchilik, chorvachilik, dehqonchilik) va madaniy merosi o'zbek xalqining umumiy etnogenezida alohida tadqiqot ob'yektidir. Sovet davridan keyingi mustaqillik sharoitida milliy o'zlikni anglash, tarixiy ildizlarni tiklash va madaniy birligini mustahkamlash masalasi davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylangan. Shu jihatdan Orol o'zbeklarini tahlil qilish o'zbek urug'larining ichki tuzilishini aniqlashga, ular o'rtasidagi o'zaro aloqalarni ochib berishga yordam beradi.

Mavzuning dolzarbligi ayniqsa ekologik inqiroz nuqtai nazaridan yanada kuchaymoqda. Orol dengizi fojiasi natijasida Orolbo'yi aholisi, xususan o'zbek urug'lari vakillari og'ir ijtimoiy-iqtisodiy va sog'liqni saqlash muammolariga duch keldi. Bu holat ularning an'anaviy turmush tarzi, demografik holati va madaniy merosining saqlanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Shuning uchun mavzuni o'rganish nafaqat tarixiy-etnografik ahamiyatga ega, balki hozirgi vaqtning dolzarb muammolarini — ekologik migratsiya, madaniy moslashuv, yosh avlodda milliy o'zlikni shakllantirish va hududiy rivojlanish masalalarini hal etishda ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari, mavzu Markaziy Osiyo xalqlari o'rtasidagi etnik va madaniy o'zaro ta'sirni, xususan o'zbek-qoraqalpoq, o'zbek-qozoq aloqalarini tadqiq etishda ham muhimdir. Globallashuv sharoitida mahalliy urug'-qabila identifikatsiyasini saqlab qolish va uni umum milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, "O'zbek urug'lari tarkibidagi Orol o'zbeklari tahlili" mavzusi o'zbekistonlik olimlar oldida turgan milliy tarixni ilmiy jihatdan to'liq tiklash, madaniy merosni o'rganish va zamonaviy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish vazifalariga to'g'ridan-to'g'ri xizmat qiladi. Bu tadqiqot nafaqat o'tmishni anglashga, balki kelajakni barpo etishga ham hissa qo'shadi.

Metodlar va mavzuning o'rganilganlik darajasi:

Mavzu o'zbek xalqining etnik tarixi, etnogenezi va mintaqaviy xususiyatlarini o'rganishda muhim o'rin tutadi. Bu mavzuni o'rganishda sovet davri va mustaqillik yillarida bir qator yetakchi olimlar va etnografik guruhlar faoliyat ko'rsatgan.

K.L. Zadixina rahbarligidagi Shimoliy o'zbek etnografik tadqiqot guruhi (Xorazm arxeologiya-etnografik ekspeditsiyasi doirasida) Orolbo'yi va shimoliy Xorazm o'zbeklarining urug'-qabila tarkibi, turmush tarzi, urf-odatlar va etnik aloqalarini chuqur o'rgangan. Ular shimoliy o'zbeklarni (Dashti Qipchoq avlodi sifatida) qoraqalpoq va qozoqlar bilan yaqinligini ta'kidlagan holda, urug' etnonimlarini tahlil qilganlar.

G.P. Snesev boshchiligidagi o'zbek etnografik otryadi Xorazm vohasidagi o'zbek guruhlarining, shu jumladan shimoliy (Orolbo'yi) qismining diniy e'tiqodlari, oilaviy tuzilishi va joylashuvini tadqiq etgan.

Umumiy o'zbek etnogenezi bo'yicha K. Shoniyozov, Iso Jabborov, B. Axmedov, A. Asqarov kabi olimlarning asarlari muhim hissa qo'shgan. Ular o'zbek urug'larining 92 urug' tuzilishi, nasabnomalar va Dashti Qipchoqdan kelgan qabilalar (Nayman, Qo'ng'iroq, Kenagas va boshqalar) rolini tahlil qilganlar. Mustaqillik davrida G'.Boboyorov va boshqa zamonaviy tarixchilar urug'lar tarixi, ularning hozirgi holati va madaniy merosini o'rgangan. O.Nurjanov tilshunoslik va etnolingvistik jihatlarini tadqiq etmoqda.

Etnografik ekspeditsiyalar va maydon tadqiqotlari – mahalliy aholi bilan suhbatlar, og'zaki an'analar, rivoyatlar, dostonlar va urug' nasabnomalarini (Nasabnoma, Madjmu at-Tavorix kabi manbalar) yozib olish asosiy usul hisoblanadi.

Tarixiy-manba tahlili – qadimiy yozma manbalar (arab, fors, xitoy), sovet davri statistikasi, nasabnomalar va genealogik ro'yxatlar solishtiriladi.

Etnolingvistik va antropologik yondashuv – dialektal xususiyatlar, etnonimlar, urug' aymoqlari o'rtasidagi "juftlik" an'analari va qo'shni xalqlar (qoraqalpoq, qozoq, turkman) bilan o'zaro ta'sirni o'rganish.

Kompleks usullar – arxeologik, geografik va sotsiologik kuzatuvlar bilan birlashtirilgan holda etnik tarkib, migratsiya va madaniy moslashuv jarayonlarini tahlil qilish. Ekologik omillar (Orol fojiasi) ta'sirini hisobga olgan zamonaviy tadqiqotlarda demografik va ijtimoiy so'rovlar ham qo'llaniladi.

Ushbu tadqiqotlar Orol o'zbeklarining o'zbek etnosidagi o'rni, ularning Kipchak va Og'uz qatlamlari bilan bog'liqligini ochib bergan. Biroq, mavzu hali ham to'liq o'rganilmagan bo'lib, zamonaviy genetika, raqamli arxivlar va interdisplinar yondashuvlar bilan yanada chuqurlashtirish talab etiladi. Bu ishlar nafaqat ilmiy, balki milliy o'zlikni saqlash va madaniy merosni tiklashda ham muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalari:

92 ta "o'zbek urug'lari" ro'yxati va ularni tahlil qilishdagi ma'lumotlar na faqat o'zbek urug'larini, balki o'zbek-qozoq urug'larini o'rganishga mo'ljallangan yangi tarixiy-etnografik manbalarda ham uchraydi. Bu manbalarda 92 ta "o'zbek" qabilalari, jumladan, "elat" qabilalari (ko'chmanchi qabilalar) ro'yxati keltirilgan. Ma'lumki, nasl-nasab an'anasi, ma'lum sondagi qabilalarga bo'linishini bir necha asrlar davomida yuz berib kelgan. Akademik V Bartold bu to'g'rida 32 o'zbek urug'ini, keyinchalik urug'lar bo'linishi natijasida 92 ta, urug'ga etganligini aytadi. 1756-yilda mang'it urug'idan bo'lgan birinchi Buxoro amiri Muxammad Rahimbiyning taxtga o'tirishi haqidagi ma'lumotda 32 urug' qayd etilgan. Bu haqda Muhammad Rahimbiydan keyingi Buxoro hukmdorlari rus agenti Brinuga taxminan 92 urug' borligi to'g'risida ma'lumot berganligi aytiladi. Bu ma'lumotlar sabab urug'larni o'rganishimiz uchun to'liq imkoniyatga ega bo'lamiz. Qolaversa, V. Bartold 92ta "o'zbek urug'i"ning paydo bo'lishini 32 urug'ning asta-sekin bo'linib 92 urug'ga aylanganligi bilan izohlaydi.

"O'zbek" qabilalarining ro'yxatini o'rganish zarurligi haqidagi savolning to'g'ri qo'yilganligini ko'rib chiqar ekanmiz, lekin shuni ta'kidlashimiz kerakki, bu holatda biz bu 32 urug'ning 92 ta urug'ga "asta-sekin aylanib borishi jarayoni urug'lar o'rtasida parchalanishi bilan izohlashimiz kerak.

Shu nuqtai nazardan, Sayfiddin Axsikentiyning XVI asrda Farg'onada yozilgan "Majmu'at-tavarix" asari katta e'tiborni tortmay qolmaydi. Bu yerda muallif 92 ta "o'zbek" urug'laridan tashqari elat qabilalarining nomlarini ham sanab o'tgan. O'zbek urug'larining 92 urug'ga an'anaviy bo'linishi XVIII -asrgacha davom etganligini to'g'risida ham ma'lumotlar berilgan.

Bundan tashqari bu to'g'ridagi ma'lumotlarni boshqa adabiyotlarda ham uchratish mumkin. Masalan, XVII asrda yashagan o'zbek shoiri Turdi she'rlarida ham bu urug'lar tilga olinganligida o'z isbotini topganligini ko'ramiz. Bundan tashqari Sayfiddin Axsikentiy keltirgan 92 ta urug' nomlarida, bizgacha yetib kelmagan urug' nomlarini ham uchratish mumkin.

Demak 32 ta o'zbek urug'larining parchalanishi va 92 ta urug'ga birlashishida ma'lum bir an'anaga asoslanganligini kuzatishimiz mumkin. Bu jarayon XVI – asrning birinchi yarmidan kech bo'lmagan vaqtga to'g'ri keladi.

Agar 32 urug'ga bo'linish masalasiga kelsak, bu yerda Dashti Qipchoq o'zbeklarini o'z tarixining qaysidir bir davrida 32 urug'ga bo'lishinisida shajaraviy an'anaga asoslanganligi ko'ramiz. “Avval Fulad bilan birlashganligi keyinchalik esa 32 urug'ning To'xtamishxonga bo'ysunganligi haqida, Sayfiddin Axsikentiy o'zining “Majmuai at-tavarix” asarida tilga olingan. Bundan Sayfiddin Axsikentiyning “Majmuayi at-tavarix” asarida Markaziy Osiyo o'zbeklarining 32 qabilaga bo'linib ketishi jarayoni, ularning ko'chmanchilik turmush tarzida yashab, chorvachilik bilan shug'ullanayotgan davriga to'g'ri keladi. Bu haqidagi ma'lumotlarni XIX -asrning bir qator mualliflari asarlarida uchramiz. Bundan tashqari “O'ttiz ikki shoxli o'zbeklar” nomi bilan qozoq rivoyatlarida ham tilga olinadi. Biroq, na Sayfiddin Axsikentiy, na A. Boris, na G. Potanin bular 32 o'zbek urug'ning ro'yxatini keltirmaydi. Lekin 92 “o'zbek” urug'lari ro'yxatining bir nusxasi XIX asrning ikkinchi yarmida Xivaga kellgan venger olimi X. Vamberi tomonidan quyidagi tartibda nashr etilgan: “Ming, Yuz, Qirq, Ungajit, Nayman, Qipchoq, Arg'in, Burloq, Busloq, Chemarchin, Buzay, Qatay, (Xitoy), Jit, Juyut, Saljovut, Mang'it, Qang'it, Oymavut, Ulaji, Gulegen, Qishliq, Tomo, Mechet, Kirderi, Ramadan, Juyrat, Bo'zachi, Uysun, Tatar, Tilov, Shirin, Ag'ir, (Og'irin), Buzan, Buzaq, Barin, (Bahrin), Mo'g'ul, Nukus, Jaloir, Saroy, O'ng, Qo'ng'iroq, Olchin, Chichoq, Qalmoq, Oyrat, Qorluq, Turgavut, Qatog'on, Kilechi, Kenagas, Buyrak, Qiyot, Qang'li, O'zjebo'luji, Upulachi, Gulun, Boyovut, Utarchi, Arlot, Kerayit, O'ngg'ut, Qachal, Merkat, Burqut, Quralash, Qarlon, O'g'lon, Kudey, Turkman. Do'rmon, Tobin, Mumun, Aday, To'qsoba, Qirgiz, Uyrui, Jo'rg'a, Batash Qo'ysun, Sulduz, Tumay, Ko'rlavut, Jilkash Yug'ur, Yobu, (Yoqabu), Mo'ytan, Major, Qo'jaliq, Cho'ran, Churchut. Bu aytilgan urug' nomlarining 33 ga qadari Mo'g'ul qabilalarining, boshqalari esa Jo'ji ulusidagi butun mashhur turk qabilalarining nomidir. O'zbeklar kelmasdan avval Movarounnahrda yashab, so'ng ularga aralashib ketgan Barlos, Qovchin kabi kabi qabilalar nomi bu ro'yhatda yo'qdir. Nomlari sanab o'tilgan 92 ta qabiladan 45 tasi bugungi o'zbeklar hayotiga oiddir.

1732 yilgacha o'rganilmagan ro'yxatda 32 ta urug'ning ajralib ketishi sababi 92 “O'zbek” urug'lari ro'yxatini dastlabki taqqoslash, V. A. Romodin topilmalariga ko'ra, 32 urug' ro'yxatida Markaziy Osiyoning “ko'chmanchi” o'zbeklarini tashkil etgan asosiy tarkibiy qismlarning nomlari borligini ko'rsatadi, shu bilan birga, ular bilan bir vaqtda 92 urug'lari ro'yxatida ko'proq ko'p sonli ko'chmanchilar (o'zbek va boshqalar) etnik guruhlarini beradi. Bular ma'lumot bergan vaqtda o'zbek urug'larining Markaziy Osiyoda o'z qudratining yuqori cho'qqisiga chiqib Uraldan to Hindgacha bo'lgan hududlarda hokimiyatini o'rnatgan davriga to'g'ri keladi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, o'zbeklarning o'z tarixining keyingi bosqichida 32 ta urug'gan 92 ta urug'ga bo'linishi XVII-XVIII asrlarda O'rta Osiyoning ijtimoiy-siyosiy hayotining xususiyatlarini ma'lum darajada aks ettiradi. Manbalarga ko'ra, mamlakat hayotida eng katta ta'sirga ega bo'lgan alohida urug'lar vakillari bo'lgan amaldorlar ham bo'lgan. Bundan tashqari, bu amaldorlarning sud doiralariidagi mavqei ularning ma'lum bir urug'ga mansubligiga bog'liq edi.

Ayrim manbalarda 92 ta “o'zbek” qabilasining an'anaviy ro'yxatlari, avvalgi 32 ta o'zbek urug'lari to'g'risida Mahmud Qashqariy asarida yoki Rashid ad-Dinning asarlarida o'g'uz-turkman urug'idan iborat ro'yxatlarlarda ham uchraydi.

Markaziy Osiyo tarixiga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlarda shu kabi fikrlarni uchratish mumkin. Manbalarda “o'ttiz ikki” yoki “to'qson ikki” o'zbek urug'lari ko'p tilga olinadi, ammo bu urug'larning aniq ro'yxati Xerman Vamberigacha hech qayerda keltirilmagan. Manbalarda keltirilgan 92 ta “o'zbek” urug'ining ro'yxatini, ma'lumotlarini saqlab qolgan holda Sayfiddin Axsikentiyning “Majmu at-tavorix” asarining uchta bo'limiga asoslangan “o'zbek urug'lari”

haqidagi ma'lumotlarga, O'zbekiston Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik institutining nizomi asos qilib olingan. 92 ta o'zbek qabilalari ro'yxati "Majmu' at-tavorix"da uchraydi.

"Majmu'at-tavarix" asari XVI asrda Farg'onada tojik tilida ikki muallif tomonidan yozilgan. Birinchi asosiy qismi Mulla Sayfiddin domla tomonidan ikkinchi qismi Shoh-Abbos Axsikentiy tomonidan, uchinchi qismi uning o'g'li Nur Muhammad yoki Navro'z-Muhammad tomonidan yozilgan. "Majmu'at-tavarix" asarining ikkita qo'lyozmasi hozirgi Sankt-Piterburg qo'lyozmalar inistitutida saqlanadi. Ushbu asarning Sank-Piterburg qo'lyozmalari va muallifi haqida batafsil ma'lumot olish uchun Romodinning "Tarixlar to'plami", "Qirg'izlar" va "Qirg'izlar tarixi" asarlaridan olamiz. Uchinchi qo'lyozma yaqinda Qirg'izistonda topilgan va hozirda Qirg'iziston Fanlar akademiyasining Til va adabiyot institutida saqlanmoqda.

"Majmu'at-Tavarix" Koson shayxlarining tarjimai hollariga bag'ishlangan bo'lib, ularning faoliyati XIV-asr oxiri va XVI-asr boshlaridagi tarixiy voqealar bilan bog'liq holda tasvirlangan. Asar muallif o'z manbalari qatorida "Tavarixi Mug'aliya" va "Tavarixi Zubdat al Bashar" asarlarining so'zboshida 92 ta o'zbek urug'I sanab o'tgani bilan boshlanadi. U shuningdek, turkiy qabilalarning kelib chiqishi haqidagi afsonaviy ma'lumotlarni keltirib, 92 o'zbek urug'larining nomlarini sanab o'tib, ikkinchi asarga murojaat qiladi. "Majmuai at-Tavarix"da keltirilgan ro'yxat 92 o'zbek qabilalarining an'anaviy ro'yxatlarining eng qadimgi ma'lum bo'lgan versiyasini ifodalaydi. Axsikentiy ro'yxatidagi qabila nomlarining tartibi, biz ko'rib turganimizdek, asosan Markaziy Osiyoning janubiy mintaqalari urug'larining tarkibini aks ettiradi, garchi an'anaviy shajaraviy ro'yxatda Markaziy Osiyo, Qozog'iston va unga tutash hududlarda yashagan turklarning aksariyati, ba'zi turkiy bo'lmagan qabilalarning nomlari sanab o'tilgan.

Ro'yxatda yuqorida Ming, Yuz, Qirg' va Jaloyir urug'lari keltirilgan bo'lib, bu, aftidan, bu urug' vakillarining Markaziy Osiyo o'zbeklarining saroy va harbiy doiralaridagi ustunligini aks ettiradi. Qanday bo'lmasin, bu qabilalarning zodagonlari, boshqa manbalarga ko'ra, XVI-XVII asrlarda mamlakat hayotida juda muhim siyosiy rol o'ynagan. Minglarning o'zlari tomonidan saqlanib qolgan afsonaga ko'ra, bu ko'p sonli o'zbek qabilasining ta'siri Abdulloh hukmronligi davrida (1583–1598) biroz pasaygan, o'shanda Minglarning bir qismi Zarafshon qirg'oqlarini tark etib, Amudaryoga havzasiga Hisor va Balx atroflariga ko'chib o'tishgan.

Avaz Muhammad ibn Mulla Ro'zi-Muhammad So'fiy Attorning "Tuxfat at-tavarixoniy" asarida XVI asrdan 1860-yillarga qadar Farg'ona va Qo'qon xonligi tarixi tasvirlangan. Qo'qonda atir-upa va attorlik savdosi bilan shug'ullanuvchi savdogar muallif savdo, oziq-ovqat mahsulotlarining bozor narxlari, soliqlar haqida qiziqarli ma'lumotlar beradi, Qo'qonning diqqatga sazovor joylarini tasvirlaydi va xonlikning siyosiy tarixini batafsil bayon qiladi, shu munosabat bilan u turk-mo'g'ul qabilalari, xususan, 92 ta o'zbek qabilasining nomlari haqida ham ba'zi ma'lumotlarni taqdim etadi.

"Tuxfat at-tavarixi xoniy"dagi qabila nomlarining tartibi, aftidan, o'tgan asrlarda Farg'onaning siyosiy hayotida sodir bo'lgan o'zgarishlarni aks ettiradi. Avvalgi ro'yxatdagi kabi, birinchi o'rinda Minglar turadi, ularning vakillari ilgari muhim rol o'ynagan bo'lib, XVIII-asrning o'rtalaridan boshlab maxsus Qo'qon sulolasining asoschilariga aylanishgan. Minglardan keyin ikkinchi o'rinda Axsikentiy ro'yxatida 13-o'rinni egallagan qirg'izlar turadi. Bu, ehtimol, qirg'izlar XVIII-asr oxiri va XIX-asr boshlarida Qo'qon xonligi tarixida muhim rol o'ynaganligi bilan bog'liqdir. Bu rolni o'sha paytda Farg'ona vodiysining sharqiy va shimoli-sharqiy chekkalarini egallagan va qipchoqlar bilan birga Qo'qon xonligining ko'chmanchi qabilalarining asosiy guruhlaridan birini tashkil etgan qirg'izlar o'ynagan.

Xulosa:

Orol o'zbeklari o'zbek urug'lari tarkibida o'ziga xos etnik-guruh sifatida shakllangan va Orol daryosi havzasi hududlarida istiqomat qiladi. Ular o'zbek xalqining etnik shakllanish jarayonida XIV – XVI asrlarda Dashti Qipchoqda yashab kelgan turli turkiy urug'-qabilalar (shayboniylar, o'zbekxon ulusining muassasalari) sanaladi. Orol o'zbeklari asosan chorpachilik va ko'chmanchilik bilan shug'ullanib, urug'-qabilachilik an'alarini saqlab kelgan bo'lsa-da, o'zbek nasabnomasi tizimida 92 urug' birgalikda "Nasabnoma"da keltirilgan va bu urug'lar tizimi XVI—XVII asrlardan bugungi kunga juda oz farq bilan saqlanib qolgan. Orol o'zbeklarining o'zligi etnik-

geografik joylashuvi, daryo havzasi madaniyati va o'zbek urug' tizimi bilan birlashganligida namoyon bo'ladi.

Zamonaviy davrda Orol o'zbeklari o'zbek xalqining etnik tarkibini to'ldiruvchi muhim guruh sifatida o'zining lingvistik, madaniy va urug' tizimini saqlab, Qozog'iston janubi va Orol daryosi havzasida o'z etnik-geografik makonini yaratib kelmoqda. Ushbu guruhning tadqiqi o'zbek xalqining etnik tarixi, urug' tizimi va O'rta Osiyo hududida shakllanish jarayonini chuqurroq tushunish uchun dolzarb ahamiyatga ega.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Задыхина К.Л. Узбеки дельты Аму-дарьи // Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции. Т. I. М., 1952. – 110 с.
2. Султанов Т.И. Кочевые племена приаралья в XV-XVII вв. – Москва: Наука, 1982. – 131с.
3. Бартольд В.В. Бай:—Сочинения. Т. 5. М., 1968.
4. Бартольд В.В. Двенадцать лекций по истории турецких народов Средней Азии. – Сочинения. Т. 5. М., 1968.
5. Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. СПб, 1865.
6. Василевич Г. М. Этнонимы в фольклоре.— Фольклор
7. Ахмедов Б. А. Государство кочевых узбеков. М.ф 1965.
8. Ахмедов Бори. Узбекларнинг кялиб чикиш тарихидаге (XV асырда кучманчи узбеклар давлати). Тошкент, 1962;
9. Потанин Г. Н. Казак-киргизские и алтайские предания, легенды и сказки. С примечаниями автора и указателем собственных имен, составленным А. Н. Самойловичем.— «Живая старина». Отделение этнографии Имп. Русского географического общества. Вып. 2—3. 1916. Пг., 1917.
10. Потапов Л. П. Этнический состав и происхождение алтайцев. Историко-этнографический очерк. Л., 1969.
11. Ромодин В. А. Некоторые вопросы этнической истории Средней Азии в трудах В. Бартольда и после него.— «Бартольдовские чтения. 18—20 марта 1974». Тезисы докладов и сообщений. М., 1974.
12. Ромодин В. А. Некоторые источники по истории Ферганы и Кокандского ханства (XVI—XIX вв.) в рукописных собраниях Ленинграда.— «Труды XXV Международного конгресса востоковедов. Москва, 9—16 августа 1960». Т. 3. Доклады делегации СССР. М., 1963. 162. Продолжение древней Российской вивлиофики. Ч. 3

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
LOOK TO THE PAST

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000